

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY



“TASDIQLAYMAN”

Turan International University rektori

A.X.Najmitdinov

2025-y.

Ro'yxatga olindi:

B1

2025-y.

**“60110500 – Boshlang'ich ta'lim” ta'lim yo'nalishi fanlaridan yakuniy
davlat attestatsiya sinovi**

DASTURI

Namangan-2025


Annotatsiya

Mazkur dastur "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-sonli Farmoni va Qarorlarida belgilangan vazifalar hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib "Turan International Universityda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yo'nalish fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartibi to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan tayyorlandi.

Yo'nalish fanlardan tuzilgan sinov dasturi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning dasturi asos qilib olindi.

Dastur 4 ta bo'limdan iborat bo'lib, "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi", "Matematika va uni o'qitish metodikasi", "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" va "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" kabi fanlarni o'z ichiga olib, unda ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchiga quyilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malaka darajasini baholash masalalari o'z aksini topgan.

Tuzuvchilar:


N. Mamasidikova
S. Sotivoldiyeva
M. Zokirova

Taqrizchi:


D. Abdusamiyev
Turan International University
Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrası
mudiri, dotsent, Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Dastur Turan International University "Gumanitar fanlar va pedagogika" fakulteti yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun Universitet kengashiga tavsiya etilgan 2025- yil " 22 " 12 " dagi _____ sonli majlis bayoni.

Dastur Turan International University kengashi tomonidan tasdiqlangan. 2025- yil " 24 " 12 " dagi _____ sonli majlis bayoni.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Prezidentimizning PQ-289-sonli qarori bilan maktabgacha, boshlang'ich ta'lim, rus tili va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kabi yo'nalishlarda ta'lim muddatining 3 yil etib belgilanishi va o'quv jarayonining "4+2" tartibida (nazariya va amaliyot uyg'unligi) tashkil etilishi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi ushbu attestatsiya orqali aniqlanadi.

I.Yakuniy davlat attestatsiyasi qo'yilgan umumiy qoidalar

1.Umumiy tushunchalar:

yakuniy davlat attestatsiyasi – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni.

yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholovchi soha mutaxassislardan iborat komissiya.

2. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o'tkazilishi mumkin.

3. Attestatsiya quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy fanlar) bo'yicha sinov;

bitiruv malakaviy ishi himoyasi;

diplom loyihasi himoyasi;

magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;

ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startap" loyihasi hamda ratsionalizatorlik g'oyasi taqdimoti.

4. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha maxsus (majburiy) fanlardan (kasbiy-amaliy) attestatsiya fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II.Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

5. Komissiya o'z faoliyatini Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi.

6. Komissiya raisligiga nomzodlar ro'yxati tegishli kafedra mudiri tomonidan shakllantiriladi hamda tasdiqlash uchun oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

7. Komissiya raislari oliy ta'lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarish sohasidagi tajribali mutaxassislardan orasidan tegishli oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir kalendar yili muddatiga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi.

Komissiya kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi hamda uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Bunda komissiya tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagog kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, kadrlar buyurtmachisi bo'lgan korxonalarning (tashkilotlarning) yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, sohaning ilg'or mutaxassislari va olimlaridan iborat bo'ladi.

8. Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bitiruvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasining tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik malaka talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga tegishli akademik darajasini berish bo'yicha qaror qabul qilish;

faoliyat natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

9. Attestatsiyada oliy ta'lim tashkilotining Vasiylik (Kuzatuv, Boshqaruv) kengashi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu videotasvirlar bir yil davomida tegishli kafedrada saqlanadi.

III. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

10. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamalarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

11. Bitiruvchilarning maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy) bo'yicha attestatsiyasi, diplom loyihasi (bitiruv malakaviy ishi) yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oliy ta'lim tashkiloti yoxud korxonada (tashkilotda) tashkil etiladi.

12. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlari attestatsiya boshlanishidan kamida uch oy oldin ishlab chiqilib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

13. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

14. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Attestatsiya boshlanishidan ikki hafta oldin komissiya raisi bilan oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) komissiya tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.

16. Attestatsiyada plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiat dasturi asosida tekshiriladi va plagiatga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiat holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiat holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

17. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

18. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

19. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqarsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

20. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida bakalavr (magistr) darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng bir oy muddat ichida unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

O'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida to'rt dan uch qismi bo'yicha "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "4" (yaxshi) bahodan (70 — 89,9 ball) kam bo'lmagan), shuningdek, attestatsiyadan "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) ko'rsatkichiga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

22. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchidan attestatsiyani qayta topshirish jarayonlarida to'lov undirilmaydi.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin attestatsiyani qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda bitiruvchiga attestatsiyani keyingi har bir o'quv yilida (uch yil davomida) ikki martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Attestatsiyani qayta topshirishga oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan ruxsat beriladi.

IV. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

23. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha bo'yicha korxonalarning (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya ishida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

24. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

V. Baholash mezonlari

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasi yo'nalish fanlaridan test sinov savollari dasturi doirasida o'tkaziladi. Test savollari ta'lim yo'nalishining "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi", "Matematika va uni o'qitish metodikasi", "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" va "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" kabi yo'nalish fanlarini ichiga olib 400 ta savoldan iborat bo'ladi. Test sinovini baholashning umumiy mezonlari 0 balidan 100 balgacha tashkil etadi. Har bir savol maksimal 2 balidan baholanadi.

Savolnomadagi 50 ta test savolining javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida bitiruvchi talabanning Yakuniy Davlat Attestatsiyasida yo'nalish fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

№	Umumiy ball	Baho		YaDA topshirgan talabanning bilim darajasi
1	90-100	5	A'lo	Savolning mazmun va mohiyati to'liq ochib berilgan
2	70-89,9	4	Yaxshi	Javobda talabanning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi
3	60-69,9	3	Qoniqarli	Savolga javob berishda masalaning mohiyatini tushunilganligi
4	0-59,9	2	Qoniqarsiz	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas

1-fan "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanidan test topshiriqlari

1. Ona tili o'qitish metodikasi qanday fanlar qatoriga kiradi.
2. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ko'rsatilgan javobni toping.
3. Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasining vazifasi qaysi qatorda berilgan.
4. Nimani o'qitish kerak savoliga javob bo'lgan qatorni aniqlang.
5. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosini nima tashkil etadi.
6. Ona tili o'qitish metodikasi bilish nazariyasidan tashqari yana qanday fanlarning ma'lumotlariga asoslanadi.
7. Savod o'rgatishning asosiy metodi ko'rsatilgan javobni belgilang.
8. Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Ushbu gapda "Bolaligimni" so'zida qanday qo'shimchalar ishtirok etgan.
9. Gazetachining ishi bir tomondan uloqchi otga, ikkinchi tomondan omoch tortadigan otga o'xshaydi. "Gazetachining" so'ziga qanday qo'shimchalar qo'shilgan.
10. Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. "Borganimda" so'ziga qanday qo'shimchalar qo'shilgan.
11. Katta tanaffusda o'qituvchilarning ko'zini shamg'alat qilib, yong'oq qoqardik. "O'qituvchilarning" so'zida qanday qo'shimchalar ishtirok etgan.
12. G'azabdan butun vujudim qaltirar, ammo o'rnimdan turolmas, oyimning u bilan aylanib-o'rgilab ko'rishganini eshitib yotar edim. "G'azabdan" so'zida qanday qo'shimcha ishtirok etgan.
13. Onam kitobni ko'rishi bilan ko'zlari quvonchdan porlab ketar, uzundan-uzoq duo qilardi. "Quvonchdan" so'zida qanday qo'shimchalar ishtirok etgan.

14. Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug'orayotgan edim, yap-yangi «Moskvich» kelib to'xtadi. Ushbu gapda nechta egalik qo'shimchasi mavjud.
15. Kichkinaligimizda oramizda eng bo'sh-bayov bola shu edi. Ushbu gapda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar nechta.
16. Har faslning o'z o'yini bor. O'yini so'ziga qanday qo'shimcha qo'shilgan.
17. Uyning devorlari juda past edi. Ushbu gapdagi devorlari so'zida qanday qo'shimcha mavjud.
18. Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan olingan bo'lib, qanday ma'noni ifodalaydi.
19. So'zlarni teng bog'lovchi vositalar berilgan javobni belgilang.
1) biriktiruv bog'lovchilari; 2) zidlov bog'lovchilari; 3) ayiruv bog'lovchilari; 4) inkor bog'lovchilari; 5) sanash(tenglashish) ohangi.
20. Shu payt hovliga harbiycha kiyingan ikki yigit kirib keldi. Ushbu gap so'zlarning nechta tobe bog'lanishidan tashkil topgan.
21. O'z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi. Ushbu gapda qo'llangan moslashuvli so'z birikmalari miqdorini aniqlang.
22. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirladi. Berilgan gapda nechta bitishuvli so'z birikmalari ishtirok etganini aniqlang.
23. Moslashuvli so'z birikmasi berilgan javobni belgilang.
24. Boshqaruvli so'z birikmasi berilgan javobni belgilang.
25. Bitishuvli so'z birikmasi berilgan javobni belgilang.
26. So'z birikmasi berilmagan javobni belgilang.
27. So'z birikmasining qaysi turida tobe so'z sifat va ravish vazifasida qo'llanadi.
28. Qaysi javobda bitishuvli so'z birikmasi berilgan.
29. Qaysi javobda moslashuvli so'z birkmasi berilgan.
30. Men bolalarni uyga taklif etdim. Ushbu gapda qaysi so'z birikmalari ishtirok etgan.
31. Majhul nisbatdagi fe'l qatnashgan gapni aniqlang.
32. Qaysi gapda olmoshning ma'nosiga ko'ra to'rt turi qatnashgan.
33. Kesimi o'zlik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gapni aniqlang.
34. Qaysi javobdagi olmoshlar haqida berilgan ma'lumot to'g'ri emas.
35. Men ikkoviga uchtdan hil-hil pishgan shaftoli berdim. Mazkur gapda qatnashgan taqsim son haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri.
36. Hayot go'zal, hayot maroqli, Shuning uchun erka ko'ngil shod. Ushbu she'riy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr to'g'ri.
37. Qaysi gapda sodda yasama holat ravishi ishtirok etgan.
38. Qaysi javobda uchta yasama fe'l qatnashgan.
39. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan.

40. O'zlik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
41. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan.
42. Qaysi javobda jamlovchi son qatnashgan.
43. Qaysi javobda o'zi ishora qilgan so'z bilan o'zaro bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan.
44. Hosildan bo'shagan kuzgi dalalarda ishlash maroqli. Ushbu gapdagi yasama so'zlar haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas.
45. Qaysi javobda olmosh o'zi ishora qilgan so'z bilan o'zaro bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan.
46. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, ham dadillik baxsh etardi. Mazkur gapda qatnashgan mavhum otlar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas.
47. Uyning qiya ochiq eshigi oldida turgan bolakay sekingina ichkariga kirdi. Ushbu gap haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri.
48. Sovuqqon odamlardan qo'rq: ular o'ldirmaydilar va xiyonat qilmaydilar, ammo ularning indamay qilgan razilliklari tufayli, afsuski, yer yuzida haligacha sotqinlik va qotillik yashamoqda. Ushbu gapda nechta yasama ot mavjud.
49. Bostirib kelayotgan qo'shinni to'xtatish, mag'lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho o'rinda aytilgan birgina so'z ham kifoya bo'lgan. Ushbu gapda nechta olmosh ishtirok etgan.
50. Majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
51. Hayot go'zal, hayot maroqli, Shuning uchun erka ko'ngil shod. Ushbu she'riy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas.
52. Qaysi javobda uyushiq ravish qatnashgan.
53. Quyida berilganlardan bitishuvli so'z birikmalarini aniqlang. 1) katta qozonda; 2) qush ini; 3) bukchaygan tollar; 4) qovun tilimi; 5) otning dumi; 6) sog'inchli salom
54. Qaysi javobda holat ravishlari berilgan.
55. Qaysi gapda maqsad ravishdoshi qatnashgan.
56. Qaysi gapda ish-harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalagan ko'makchi fe'l qatnashgan.
57. Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul.
Ushbu she'riy parchada qatnashgan fe'llar soni nechta.
58. Qaysi gapda o'zlik nisbatdagi fe'l qatnashgan.
59. ...domlanning ko'z qiri tushib qolarmikan degan niyatda astoydil xizmat qilishardi. Mehmonlar kechga taklif etilgan edi. Ushbu parchada nechta fe'l so'z turkumiga oid so'zlar qatnashgan.
60. Tarkibida sifatdan yasalgan sodda yasama ravish qatnashgan gapni aniqlang.
61. Qaysi gapda "yubormoq" fe'li ko'makchi fe'l bo'lib kelmagan.

62. Qaysi javobda fe'l nisbatlarining barcha turida qo'llana oladigan fe'llar qatori berilgan.
63. Unsin qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. Ushbu gapda nechta ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan.
64. Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. Ushbu gapda nechta ot so'z turkumiga oid so'zlar berilgan.
65. Qaysi javobda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
66. Hamma qushlar baland ovozda yayrab-yayrab, to'lib-toshib sayrashmoqda. Mazkur gapdagi fe'llarning tuzilishiga ko'ra qanday turlari qatnashgan.
67. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'ldi. Mazkur gapda qaysi vazifadosh fe'l qatnashgan.
68. Shunchaki sevilmoq - baxtiqarolik.
To'la tole uchun bu kemptik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik:
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.
Ushbu she'riy parchada majhul nisbatdagi fe'l nechta o'rinda qatnashgan.
69. U o'ziga hayratomuz tikila boshlagan Oqbo'yinga boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi. Mazkur gapda necha o'rinda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan.
70. Qaysi gapda birgalik nisbatidagi yasama fe'l qatnashgan.
71. Majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
72. Qaysi javobda yasama holat ravishi qatnashgan.
73. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
74. «Institutni bitirgan yilim meni aspiranturaga qabul qilishdi va men yana shaharda qoldim», - deb so'zini davom ettirdi u biroz o'ylangandan so'ng. Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas.
75. Qaysi javobda yasama narsa oti qatnashgan.
76. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan.
77. Qaysi gapda orttirma nisbatdagi fe'l qatnashgan.
78. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Ushbu gapda ishtirok etgan yasama otlar necha o'rinda qatnashgan.
79. Qaysi gapda -ir qo'shimchasi bilan hosil qilingan orttirma nisbatdagi fe'l qatnashgan.
80. Qaysi javobda yasama holat fe'li berilgan.
81. Majhul nisbatdagi fe'l qatnashgan gapni aniqlang.

82. Qaysi javobda ravish qatnashgan.
83. U gilolar ostiga qo'yilgan panjaralari ko'k bo'yoq bilan sirlangan katta yog'och karavotda yonboshlab o'tirar edi. Ushbu gapda qatnashgan yasama fe'llar nechta.
84. Qaysi gapda majhul nisbatdagi va birgalik nisbatidagi fe'llar qatnashgan.
85. Majhul nisbatdagi fe'l qatnashgan gapni aniqlang.
86. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan.
87. Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi. Ushbu gapda nechta sifatdash qatnashgan.
88. Qaysi javobda so'roq olmoshi qatnashgan.
89. Charchamang, ko'zlarim, boqay to'yuncha,
Bu zavq daryosidan shimir, ey ko'ngil.
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar miqdori qancha.
90. Qaysi javobda o'zlik nisbatidagi fe'llar berilgan.
91. Qaysi gapda 2 o'rinda o'timsiz fe'l qatnashgan.
92. Juft fe'l qatnashgan gapni toping.
93. Shunchaki sevilmoq - baxti qarolik.
To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik:
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.
Ushbu she'riy parchada qatnashgan yasama fe'llar nechta.
94. Qaysi gapda ravishdash 2o'rinda qo'llangan.
95. Qaysi gapda belgilash olmoshi qatnashgan.
96. Qaysi gapda o'zlik nisbatdagi fe'l qatnashgan.
97. Qaysi gapda o'zlik nisbatidagi fe'l qatnashgan.
98. Ortirma nisbatdagi fe'l qatnashgan gapni aniqlang.
99. Or - bu o'ziga ep ko'rilmagan yoki yarashmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilib yashash tuyg'usidir. Mazkur gapda fe'lining qaysi vazifa shakllari qatnashgan.
100. Qaysi javobda otlashgan sonlar kelgan.

2-fan "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fanidan test topshiriqlari

1. Noma'lum bo'luvchi qanday topiladi.
2. Qaysi holda qo'shish va ayirish amallari ko'paytirishdan oldin bajariladi.
3. Qo'shish va ayirish amallari aralash berilgan bo'lsa, ularni qaysi tartibda bajarish kerak.
4. Ko'paytirish va bo'lish amallari aralash berilgan bo'lsa, ularni qaysi tartibda bajarish kerak.

5. "48-3" ni yechish metodikasini ko'rsating.
6. $1000+...+50+4=1654$ da nuqtalar o'rniga qoldirilgan sonni qo'ying
7. To'g'ri burchak deb qanday burchakka aytiladi.
8. Maxraji 10 ning darajalari bilan ifodalangan kasr..... deyiladi.
9. To'g'ri kasrlarni ajrating. $13/8$, $56/50$, $11/10$, $23/33$, $45/57$
10. Dastlabki geometrik materiallar qaysi sinflardan boshlab o'rgatiladi.
11. Matematika metodikasi haqidagi tushunchani birinchi bo'lib kim, qaysi asarida kiritgan.
12. Maktabda o'qitishni tashkil qilishning asosiy shaklidir.
13. "Tenglik" tushunchasi qaysi sinfda o'rgatiladi.
14. $1000+...+50+4=1654$ da nuqtalar o'rniga qoldirilgan sonni qo'ying
15. Ko'p xonali sonlarni raqamlashda qanday tushuncha kiritiladi.
16. Yuz ichidagi nomerlash nechta bosqichlarga ajratib o'rgatiladi.
17. 1-sinfda 10 ichida qo'shish va ayirishni o'rganishda qaysi xossa bilan tanishadilar.
18. Birinchi sinfda qanday amallar o'rgatiladi.
19. Ko'paytirish va bo'lish amali nechanchi sinfda o'rgatiladi.
20. Hisoblang. $(96048 : 8 - 10422 : 579) : 3$ ning $2/9$ qismini toping.
21. Ochiq matematika darsi uchun sinf har birida 5 nafardan o'quvchi bo'lgan 6 ta guruhga bo'linishi kerak. 2 nafar o'quvchi darsga kela olmagan sababli o'qituvchi sinfni 7 ta teng guruhga bo'ldi. Ochiq darsda har bir guruhda necha nafardan o'quvchi bo'lgan.
22. 10 ichida nomerlash metodikasi qaysi sinfda o'rgatiladi.
23. 1-sinfda o'quvchilar qo'shishning qaysi xossasi bilan tanishadilar.
24. Metod so'zining ma'nosi nima.
25. Metodika qaysi tildan olingan.
26. Nomanfiy butun sonlarga qanday sonlar to'plami kiradi.
27. Cm uzunlik o'lchov birligi qaysi sinfda o'rgatiladi.
28. Matematika o'qitishning metodikasi necha qismdan iborat.
29. Matematika o'qitish metodikasi asosiy qaysi fan bilan uzviy bog'liq.
30. Matematika darsida foydalaniladigan vositalarga nimalar kiradi.
31. Har bir son qanday hosil qilinadi.
32. Induksiya nima.
33. Eng sodda figuralarga qaysilar kiradi.
34. Eng sodda figuralar qaysi sinfda o'rgatiladi.
35. Bilimlarni nazorat qilish necha turga bo'linadi.
36. Matematika darslarida jadvallar necha turga bo'linadi.
37. Oz komplektli maktablarda eng kamida nechta o'quvchi bo'lishi talab etiladi.
38. Ko'pburchak tushunchasi qaysi sinfdan boshlab o'rgatiladi.

39. Fazoviy shakllarga qaysilar kiradi.
40. To'plamlar necha turli bo'ladi.
41. 10 lik konsentirida arifmetik amallarni o'rgatishni 1-bosqichini ko'rsating.
42. Birinchi o'nlik ustida ishlash necha bosqichda amalga oshiriladi.
43. "40-16" misolni yechishda ayirmaning qanday qoidasidan foydalaniladi.
44. Ko'paytirish bu nima.
45. Ko'paytirish va bo'lish jadvali qaysi sinfda o'rgatiladi.
46. Kilometr o'lchov birligi qaysi sinfda kiritiladi.
47. Vosita nima.
48. Raqamlash nima.
49. Nomanfiy butun sonlarga qaysi sonlar to'plami kiradi.
50. Bo'yi 34 dm, eni 4 dm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi taxtadan bo'yi 1 m 2 dm bo'lgan bo'lak qirib olindi. Taxtaning yuzi qanchaga kamaydi.
51. 250 ta mix 3 kilogramm bo'ladi. Mix grammlab sotiladi. Ta'mir uchun 70 ta mix talab etilsa, necha gramm mix sotib olish kerak.
52. Hisoblang. $742 \text{ kg} \cdot 30 - 2 \text{ t } 3 \text{ q} : 50 + 12458 \text{ kg}$
53. Hisoblang. $3 \text{ t } 129 \text{ kg} + 1 \text{ t } 6 \text{ q } 85 \text{ kg}$
54. 4 soatda quvurdan 288 l suv oqib tushadi. Bu quvurdan oqib tushadigan suv hajmi 18 m^3 bo'lgan hovuzni qancha vaqtda to'ldiradi.
55. Hisoblang. $6 \text{ h } 4 \text{ min } 45 \text{ s} + 2 \text{ h } 46 \text{ min } 37 \text{ s}$
56. 24 nafar sayyoh safarga chiqdi. Ularning har biri o'zi bilan birga termosda suv olgan. Bunda sayyohlarning uchdan birida 500 ml, qolganlarida esa 750 ml suv sig'adigan termos bo'lgan. Guruhlarning umumiy suv zaxirasi qancha.
57. Hisoblang. $7 \text{ ha } 5 \text{ a} \cdot 4 - 2 \text{ ha } 34 \text{ a} : 2$
58. Hisoblang. $15 \text{ dm}^2 3 \text{ cm}^2 \cdot 3 - 16 \text{ dm}^2 72 \text{ cm}^2 : 8$
59. 60 ning bo'luvchilari nechta.
60. 12 metrlik matodan 4 ta ko'ylak tiksa bo'ladi. 28 ta ko'ylak uchun qancha mato kerak bo'ladi.
61. Batalyonda uchta rota bor. Birinchi rotada 98 ta askar, ikkinchisida undan 12 ta askar ko'p, uchinchisida esa ikkinchisidan 17 ta kam askar bor. Bu batalyonda nechta askar bor.
62. 1 kvartal necha oy.
63. Uchta taroqdan iborat to'plamning narxi 18 600 so'm, beshtalik to'plam esa bundan 7 200 so'm qimmatroq. Qaysi birida bitta taroq arzonroq bo'ladi.
64. Firma yanvar oyida 135 mln so'm, fevralda yanvardagidan 5 baravar kam, mart oyida esa fevraldagidan 3 baravar ko'p daromad oldi. Firma bu kvartalda jami necha so'm daromad olgan.

65. Bog'da tushlikkacha 880 kg, tushlikdan keyin esa 730 kg olma terildi. Bu hosilni yashikka joylash kerak. Bir yashikka 35 kg olma sig'sa, nechta yashik kerak bo'ladi.
66. 1 m^3 necha cm^3 .
67. Hisoblang. $6\text{dm } 3\text{ cm } 2\text{ mm} = \dots\dots\text{mm}$
68. Hisoblang. $450\text{ cm} = \dots\text{m } \dots\text{ dm}$
69. Bir shisha sutning massasi 800 gramm, yarim shisha sut esa 450 gramm massaga ega. Bo'sh shishaning massasini toping.
70. $2\,730\,000\text{ dm}^2 = \dots\dots\dots\text{mm}^2$
71. Yangi tug'ilgan fil bolasining massasi 120 kg. Katta filning massasi 4500 kg. Filchaning massasi katta fildan necha marta kichik.
72. Binoni yoritish uchun har 10 metrda chiroqlar o'rnatiladi. Uzunligi 60m, eni esa undan 100dm kichik bo'lgan bino bo'ylab nechta fonar o'rnatish kerak.
73. Hisoblang. $(7\text{t } 2\text{q } 34\text{kg} + 8\text{t } 63\text{kg} - 5\text{t } 372\text{kg}) : 5$
74. Tikuvchi 6 ta ko'ylak tikish uchun 72 tirsak mato sarfladi. U 25 ta ko'ylak tikishi uchun necha tirsak mato kerak bo'ladi.
75. Hisoblang. $(5211\text{ g} + 7\text{kg } 353\text{g}) : 9$
76. Hisoblang. $32\text{kg} - 3 * 4\text{kg } 540\text{g} =$
77. Hisoblang. $3\text{m } 43\text{cm} : 7 + 12\text{dm } 2\text{cm} : 2 =$
78. Hisoblang. $4\text{km } 235\text{m} : 5 - (5\text{km } 72\text{m} - 4\text{km } 230\text{m}) =$
79. Usta bir oyda 15ta ko'zaga naqsh chiza oladi. Agar u shunday unumdorlik bilan ishlasa, bir yilda nechta ko'zaga naqsh chizadi.
80. 4 soatda quvurdan 288 l suv oqib tushadi. Bu quvurdan oqib tushadigan suv hajmi 18 m^3 bo'lgan hovuzni qancha vaqtda to'ldiradi.
81. $1\text{ dm} = \dots\dots\text{m}$
82. $1\text{ cm} = \dots\dots\text{m}$
83. $A = \{ 14/45, 5/3, 7/7, 3/8, 11/6, 9/9, 2/13 \}$ to'plamdan to'g'ri kasrlarni toping.
84. Hisoblang. $13 \cdot (-11) - (-14) \cdot (-14) \cdot 12 - 73 \cdot 37 + (-37) \cdot (-27) =$
85. 18 va 30 sonlarining eng kichik umumiy karralisini toping.
86. 28 va 49 sonlarining eng kichik umumiy karralisini toping.
87. Quyidagi sonlardan qaysi biri 4 ga qoldiqsiz bo'linadi. 123456, 10377482, 3456785, 90879087647.
88. To'g'ri kasrlarni ajrating. $3/8, 56/50, 11/10, 23/33, 45/57,$
89. Matematikada a/b ko'rinishida yozsa bo'ladigan barcha sonlar to'plamiga kiradi.
90. 1; 2; 3; 15; 17; 23; 24; 37, 49, 169; 289; sonlar ketma-ketligida nechta tub son bor.
91. $A = \{1, 2, 3, 4, 5, 6\}$ va $B = \{2, 4, 6, 8\}$ lar berilgan. Bu to'plamlarning birlashmasini toping.

92. $A=\{1,2,3,4\}$ va $B=\{3,4,5,6,7,8\}$ to'plamlar ayirmasini toping.
93. Silindrning yon sirti – to'g'ri to'rtburchak. Bu to'g'ri to'rtburchakning bo'yi 18 cm, perimetri 60 cm. Silindr yon sirtining yuzini toping
94. B to'plamning har bir elementi A to'plamga tegishli bo'lsa, B to'plamni A to'plamning:..... deyiladi.
95. Bir xil elementlardan tashkil topgan to'plamlarto'plamlar deyiladi.
96. To'plam chekli sondagi elementlardan tashkil topsa,to'plam deyiladi.
97. To'plamlarning berilish usullari nechta.
98. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 4 cm, eni bo'yidan 2,4 sm qisqa. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping
99. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 6 sm, eni 4 sm. Uning bo'yini 3 marta oshirsa, yuzi qanday o'zgaradi.
100. Ikki shahar orasidagi masofa 250 km. Avtobus bir soatda 60 km yo'l bosib o'tdi. Agar avtobus shu tarzda yana 3 soat yursa, manzilga necha kilometr qoladi.

3-fan “Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi” fanidan test topshiriqlari

1. “Texnologiya ta’limi va uni o’qitish metodikasi” fanining maqsadi nima.
2. “Texnologiya” so’zining ma’nosi nima.
3. Texnologiya darslarini tashkil etishda amaliy dars turlari qaysilar.
4. Texnologiya darslarini tashkil etishda sinfdan tashqari dars turlari qaysilar.
5. Texnologiya fanini o’qitish tamoyillari qaysilar.
6. Origami qanday san’at.
7. “Origami” so’zining ma’nosi nima.
8. Texnologiya fanining Milliy o’quv dasturi avvalgi DTSdan qanday farq qiladi.
9. Texnologiya fanining Milliy o’quv dasturi komponentlari qaysilar.
10. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi tarkibiga nimalar kiradi.
11. O’z-o’zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi tarkibiga nimalar kiradi.
12. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi tarkibiga nimalar kiradi.
13. Texnologiya fani milliy o’quv dasturida berilgan tayanch kompetensiyalar qaysilar.
14. 2-3–4-sinflarda texnologiya fanidan nazorat ishi yiliga necha marta o’tkaziladi.
15. 1-sinf o’quvchilariga qo’yiladigan o’quv talablari nimalardan iborat.
16. Qaychidan to’g’ri foydalanish qoidalarida qaysi holat noto’g’ri.
17. Ignadan to’g’ri foydalanish qoidalarida qaysi holat noto’g’ri.

18. „Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdur oxir“ degan hikmatli soʻzni qaysi alloma aytib oʻtgan.
19. STEAM qisqartmasidagi „T“ harfi nimani anglatadi.
20. „Kasb“ soʻzining maʼnosi nima.
21. „Hunar“ soʻzining maʼnosi nima.
22. „Odam-tabiat“ tipidagi kasblar qaysilar.
23. „Odam-belgilar tizimi“ tipidagi kasblar qaysilar.
24. „Odam-badiiy obraz“ tipidagi kasblar qaysilar.
25. „Odam-texnika“ tipidagi kasblar qaysilar.
26. Mehnat qoʻshiqlari necha turga boʻlinadi.
27. Qaysi turdagi qoʻshiqlarda yil-oʻn ikki oy mobaynida olib borilgan mehnat jarayoni bosqichma-bosqich oʻz ifodasini topadi. Ularda yer haydash, dalaga yangi yil hosili uchun bugʻdoy sepish, unib chiqqan va boshhoqlari yetilgan bugʻdoylarni oʻrish, ularni yanchib donini ajratish kabi har bir jarayon, albatta, qoʻshiq aytish bilan qoʻshib amalga oshiriladi.
28. Dehqonchilik bilan bogʻliq mehnat qoʻshiqlari qaysilar.
29. Arpa,bugʻdoy,joʻxori kabi ekinlarni un qilishda qaysi mehnat qoʻshiqlari kuylangan.
30. Chorvachilik bilan bogʻliq mehnat qoʻshiqlari qaysilar.
31. Qaysi turdagi qoʻshiqlar xalqimizning qadimdan bu kasbni egallab kelganidan, chorvachilikning sir-sinoatlaridan xabardor ekanidan dalolat beradi. Xalq har bir hayvonga xuddi odamdek muomalada boʻlgan. Uni erkalagan, maqtagan, taʼriflagan, sifatlagan.
32. Qaysi turdagi qoʻshiqlarda hunarmand yo kosibning moddiy va maʼnaviy hayoti, ichki ruhiyati kuylangan.
33. Hunarmandchilik bilan bogʻliq mehnat qoʻshiqlari qaysilar.
34. Dastlabki mehnat qoʻshiqlari kimning asarida uchraydi.
35. Boshlangʻich sinfda mehnat shakllari qanday.
36. Instruktajning vazifasi nima.
37. Boshlangʻich sinf texnologiya darslarining taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyati nima.
38. Texnologiya darslarida oʻquvchilarning ijodiy faoliyati qanday ragʻbatlantiriladi.
39. Oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish mehnati bolaning qaysi sifatlarini rivojlantiradi.
40. Texnologiya faninini oʻqitish metodikasi fanini oʻqitishdan maqsad nimadan iborat.
41. Texnologiya taʼlimida nechta ish turi mavjud.
42. Mehnatga axloqiy tayyorlash nima.
43. Mehnat nima.
44. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining oʻquv rejasida texnologiya oʻquv faniga 1 - 4-sinflarda haftasiga necha soatdan oʻtiladi.

45. Boshlang'ich sinfdan texnologiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi nima.
46. Yupqa gazlamalarni tikishda qanday iplardan foydalaniladi.
47. "Aksessuar" so'zi qanday ma'noni anglatadi.
48. Bolalar asarlarini namoyish etadigan sinfdan tashqari ish turini aniqlang.
49. Ipak matosining vatani qayer.
50. Qog'oz va karton bilan ishlash nechanchi sinfda tanishtiriladi.
51. O'zbekistonda kashtachilik rivojlangan viloyat qaysi.
52. Loydan xaykalchalar yasashda qanday tuproqdan foydalaniladi.
53. Yumshoq o'yinchoqlar tikishda qaysi chok turidan foydalaniladi.
54. Qog'oz satxining xarakteri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
55. Qog'oz standartlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
56. Vitraj nima.
57. X – shaklidagi chok turi qanday nomlanadi.
58. WWWW - Bu qanday chok turi.
59. Yog'ochga naqsh ishlashda qanday arra turidan foydalaniladi.
60. Maktabda asosan qanday qog'oz standartidan foydalaniladi.
61. "Akvarel" so'zining manosi nima.
62. Bezak choklarini ko'rsating.
63. Somon-poxol qanday material turiga kiradi.
64. Origami usulida narsalar yasashda qanday xomashyodan foydalaniladi.
65. Xaykalchalar yasashda ishlatiladigan ish qurolini toping.
66. OOOO – bu qanday chok turi.
67. "Kvilling" san'ati bu...
68. "Natyurmort" so'zining ma'nosi nima.
69. Boshlang'ich sinf texnologiya darsida olib boriladigan mashg'ulot turlarini belgilang.
70. Boshlang'ich sinf texnologiya fani uchun uzviy bog'lanishni yaratishda qanday maqsadlar zarur.
71. Mehnat ta'limida ta'limiy maqsadning vazifasi qanday.
72. Tabiiy va sun'iy xomashyolarga nimalar kiradi.

73. Turli asboblardan foydalanishda qanday texnika xavfsizlik qoidalarini zarur.
74. Applikasiya nima.
75. Hayvonlarni tasvirlovchi tasviriy san'at janrini aniqlang.
76. Loy qanday material turi hisoblanadi.
77. Turli o'simlik va gullardan kompozitsiya yaratish san'ati bu....
78. Aplikatsiyaga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.
79. Applikasiya turlari to'liq berilgan qatorni belgilang.
80. Dekorativ aplikatsiyaga to'g'ri ta'rif berilgan variantni toping.
81. Eng oddiy aplikatsiyalar deb nimaga aytiladi.
82. Badiiy aplikatsiyalar deb nimalarga aytiladi.
83. Mavzuli aplikatsiyaga ta'rif berilgan qatorni toping.
84. Gazlamaga ishlov berish «Asbob- uskunalar va ularni ishlatish» bo'limida o'quvchilar qanday bilimlarga ega bo'ladilar.
85. Yozuv qog'ozini qanday qog'oz.
86. Rangli qog'oz qanday qog'oz.
87. Gazeta qog'oz qanday qog'oz.
88. Daftar qog'ozini qanday qog'oz.
89. Baxmal qog'ozini qanday qog'oz.
90. Qum qog'ozini qanday qog'oz.
91. Oddiy gul qog'oz qanday qog'oz.
92. Bosma qog'oz qanday qog'oz.
93. Eng pishiq va qalin qog'oz bo'lib, matodan tayyorlanadi. Oliy navi qog'ozda tayyorlanadi. Bu qanday qog'oz.
94. 1 kv m 250 grammdan ortiq bo'lgan qog'oz qanday qog'oz deyiladi.
95. Sathi bosma to'rt shaklida tayyorlanib, qog'oz o'lchamli, mayda chiziqli bo'ladi. Bu qanday qog'oz.
96. Karton qog'oz turlarini toping.
97. Mozaika qanday turlardan biri.
98. Rasm sathiga ayrim parchalar, qog'oz, oyna, sopol, gultoji barglari, tuxum po'sti kabilarni qo'yib chiqish qanday san'at turlaridan biri.

99. Plastilinni loydan farqli tomonlari ajratilgan variant qaysi.
100. Yozuvning ilk sistemasi piktografiya deyiladi "....." grekcha so'z bo'lib, rasm demakdir. Tushirib qoldirilgan so'zni toping.

4-fan "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" fanidan test topshiriqlari

1. Tabiiy fanlarni o'qitish metodlari nechta asosiy guruhga bo'linadi.
2. Og'zaki metodlar nima.
3. 1 -2 - sinflarda hikoyaning davomiyligi necha daqiqadan oshmasligi lozim.
4. 3-4 - sinflarda hikoyaning davomiyligi necha daqiqadan oshmasligi lozim.
5. Bizni o'rab turgan butun moddiy dunyo, shuningdek, Yerdan tashqarida bo'lgan kosmik fazo, sayyoralar va yulduzlar nima deb ataladi.
6. Quyosh sistemasidan va 150 mlrd yulduz hamda yulduzlararo fazodan iborat sistema nima deb ataladi.
7. Quyosh sistemasida nechta sayyora mavjud.
8. Quyosh atrofida aylanadigan, Quyoshdan kelayotgan nurni aks ettiradigan sovuq osmon jismlari nima deb ataladi.
9. Uchayotgan yulduz nima deb ataladi.
10. O'zidan yorug'lik va issiqlik chiqarib turadigan qizigan jismlar nima deb ataladi.
11. Ekvator yer sharini qaysi yarimsharlarga ajratadi.
12. Bosh meridian chizig'i yer sharini qaysi yarimsharlarga ajratadi.
13. Yer ekvatoriga parallel qilib chizilgan aylana chiziqlar nima deb yuritiladi.
14. Yer yuzasining tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning ma'lum bir vaqtdagi holati umumlashtirib, kichraytirib ko'rsatilgan tekislikdagi tasviri nima deb ataladi.
15. Yozgi Quyosh turishi kuni qaysi sanaga to'g'ri keladi.
16. Qishki Quyosh turishi kuni qaysi sanaga to'g'ri keladi.
17. Bahorgi teng kunlik qaysi sanaga to'g'ri keladi.
18. Kuzgi teng kunlik qaysi sanaga to'g'ri keladi.
19. Yerning ichki qismi tuzilishi nimalardan iborat.
20. Yer yuzida nechta materik bor.
21. Yerning "tosh qobigi" qaysi.
22. Yerning "suv qobigi" qaysi.
23. Yerning "havo qobigi" qaysi.
24. Yerning "hayot qobigi" qaysi.
25. Yer po'sti necha qavatdan iborat.
26. Taxminan 200 mln yil muqaddam Yer yuzida qaysi yagona materik bo'lgan.
27. Taxminan 200 mln yil muqaddam Yer yuzida qaysi yagona okean materik bo'lgan.

28. Pangeya materigi qaysi materiklarga ajralgan?
29. Pantalassa qaysi okeanlarga ajralgan?
30. 65 mln yil avval Lavraziyadan qaysi materiklar ajralgan?
31. Litosfera plitalari nechta?
32. Zilzila necha balllik shkalada aniqlanadi?
33. Necha balllik zilzilada Juda kuchsiz, uy ichida utirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi)?
34. Dunyoda nechta okean mavjud?
35. Eng katta okean qaysi?
36. Tabiiy o'zanda oquvchi suv nima deb ataladi?
37. Dunyodagi eng baland sharshara qaysi?
38. Gidrosfera suvining asosiy tarkibi nimalarga to'g'ri keladi?
39. Ko'llar suv almashish xarakteriga ko'ra necha turga bo'linadi?
40. Yer osti suvlari necha qismga bo'linadi?
41. Atmosfera bo'lmaganda kunduzi harorat necha gradusgacha ko'tariladi?
42. Atmosfera tarkibida azot necha foizni tashkil etadi?
43. Atmosfera tarkibida kislorod necha foizni tashkil etadi?
44. Atmosfera nechta qatlamdan tashkil topgan?
45. Atmosferaning eng quyi qatlami qaysi?
46. Atmosferaning eng yuqori qatlami qaysi?
47. Troposferaning qalinligi necha kilometr?
48. Samolyotlar, qushlar atmosferaning qaysi qatlamida harakatlanadi?
49. Yog'ingarchilik atmosferaning qaysi qatlamida sodir bo'ladi?
50. Atmosfera tarkibidagi qaysi asosiy gazlar mavjud?
51. Qaysi qatlam sayyoramizni kosmosdan ajratib turadi?
52. Ozon pardasi atmosferaning qaysi qatlamlari orasida joylashgan?
53. Havo namligi ko'tarilib, sovigan sari suv bug'lari mayda tomchilarga aylanishidan nima hosil bo'ladi?
54. Havo harorati 0°C dan past bo'lsa, havodagi suv bug'lari to'g'ridan-to'g'ri muz kristallariga aylanib, birlashashidan nima hosil bo'ladi?
55. Havo qatlamlarida suvning muzlashi natijasida hosil bo'ladigan qattiq, dumaloq shakldagi muz bo'laklari nima deb ataladi?
56. Kechasi yoki erta tongda namlik suv tomchilariga aylanadi va o'tlar, gullar, daraxt barglarida yoki yer sirtida, mayda suv tomchilari shaklida to'planishidan nima hosil bo'ladi?
57. Troposferaning biror joydagi ayni paytdagi yoki ma'lum bir vaqtdagi holati nima deb ataladi?
58. Ob havoning biror joyga xos bo'lgan ko'p yillik rejimi nima deb ataladi?

59. O'simliklar quyosh energiyasini qabul qilib, karbonat angidrid va suvni organik moddalarga (glyukoza) va kislorodga aylantirish jarayoni nima deb ataladi?
60. O'simliklarning generativ organlariga nimalar kiradi?
61. O'simliklarning vegetativ organlariga nimalar kiradi?
62. Qulupnay, beda, no'xat, namatakning bargi tuzilishiga ko'ra qanday barg hisoblanadi?
63. Shaftoli, olma, tok, tutning bargi tuzilishiga ko'ra qanday barg hisoblanadi?
64. Tuban o'simliklar qanday ko'payadi?
65. Fransuzcha "yashash vositasi" ma'nosini bildiruvchi atamani belgilang?
66. Tabiiy resurslar nechta turlarga bo'linadi?
67. Yer osti boyliklari qaysi turdagi resursga misol bo'ladi?
68. O'simlik, hayvonot, tuproq qaysi turdagi resursga misol bo'ladi?
69. Odam skeleti nechta suyakdan iborat?
70. Og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilo'ngach, oshqozon va ichak qaysi sistemaga kiradi?
71. Adrenalin gormoni qaysi a'zodan ajraladi?
72. Odamda nechta qon aylanish doirasi mavjud?
73. Sog'lom kishilarda Pulsning miqdori minutiga nechtani tashkil qiladi?
74. Odam tinch turgan vaqtda bir minutda necha marta nafas oladi?
75. Har bir nafas olganda qancha ml havo o'pkaga kiradi?
76. Inson tanasidagi Hujayralarning asosiy qurilish materiali bu qaysi modda?
77. Tanadagi hujayraning asosiy tarkibiy qismini, odam tanasi massasining 2/3 qismini qaysi modda tashkil etadi?
78. Sabzi, qovun, tuxum, jigarda qaysi vitamin mavjud?
79. Nutq, o'qish, yozish qobiliyatlari miyaning qaysi yarimsharida joylashgan?
80. Quyoshga eng yaqin sayyora qaysi?
81. Geografik xaritalarni shartli ravishda necha turga bo'lish mumkin?
82. Relyef xaritasi, foydali qazilmalar xaritasi, tuproqlar xaritasi, o'simliklar xaritasi, hayvonot dunyosi xaritasi qaysi xarita turida tasvirlanadi?
83. Yerning kichraytirilgan modeli nima?
84. 1:100000 xarita masshtabi nimani ifodalaydi?
85. Quyoshdan kelayotgan nurlanishni filtrlash va yerni issiq saqlashda yordam beradi. Yer sirtida harorat, namlik va havo bosimi kabi meteorologik hodisalarni boshqaradi. Ushbu ta'rif qaysi geografik qobiqqa xos?
86. Uch tomoni suv bilan o'ralgan va faqat bir tomondan materik yoki orolga tutashgan quruqlik nima deb ataladi?
87. Materikdan kichikroq, butunlay suv bilan o'ralgan yer nima deb ataladi?
88. Yerning tabiiy yo'ldoshi nima?
89. Yer o'z o'qi atrofida qanday yo'nalishda harakatlanadi?
90. O'simlikning ildizi qanday vazifalarni bajaradi?

91. Poya qanday vazifalarni bajaradi?
92. Odam tanasida qaysi organlar qon aylanish tizimining asosiy qismidir?
93. Salomatlikni saqlashda qaysi omillar muhim hisoblanadi?
94. Odam organizmidagi vitaminlarning roli nima?
95. Tabiat necha turga bo'linadi?
96. Kun va tun qanday almashinadi?
97. Eng katta materik qaysi?
98. O'zbekistondagi eng yirik daryolar qaysilar?
99. Eng issiq iqlim mintaqasi qaysi?
100. O'zbekiston qaysi materikda joylashgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 304 b.
2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi (darslik). – Toshkent. 2022.
3. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tili (darslik). – Toshkent: Innovasion ziyo. 2020.
4. Hamrayev M. Ona tili (metodik qo'llanma). – Toshkent, 2021.
5. M. Djumayev "Matematika o'qitish metodikasi" Toshkent – 2022y 396
6. M. Djumayev "Matematika o'qitish metodikasi" Turon-iqbol – 2016y
7. T.Ibaydullayev, A. Axlimirzayev, E. Rahimberdiyev "Oliy matematika" – o'quv qo'llanma. Innovatsiya – Ziyo 2021 y
8. B. S. Abdullayeva, A. V. Sadikova, N. A. Hamedova, N. M. Muxitdinova, M.
9. I. Toshpo'latova " Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi" Toshkent – 2020y
10. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik. T.: TDPU.2015-yil.
11. Kuttibekova G.T."Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma T.: "Fan ziyosi".TDPU.2022-yil
12. Qurbonova Sh.N., Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar. O'quv qo'llanma.B.: "Fan va ta'lim", 2013-yil
13. M.Tilavova. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.B.: "Durdona".2021-yil
14. M.Nuritdinova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi 2005 y.
15. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 4 sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T: Sharq NMIU 2013
16. A.Baxramov. Tabiatshunoslik 3 sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T: Cho'lpon NMIU 2012
17. D. Sharipova, D. Xodiyeva, M. Shirinov "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" darslik.2018 yil